

MARKAZIY OSIYODAGI ETNIK JARAYONLAR TARIXIDAN**Farmonova Nodira***Navoiy davlat universiteti Tarix fakulteti talabasi*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Markaziy Osiyoda qadim zamonlardan boshlab yuz bergan etnik jarayonlar, turli qabila va elatlarning shakllanishi, ularning o‘zaro aralashuvi hamda bugungi Markaziy Osiyo xalqlarining vujudga kelishi haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, qadimgi qabilalar, turkiy xalqlarning hududga kirib kelishi, savdo yo‘llari, urushlar va madaniy aloqalarning etnik taraqqiyotga ta‘siri yoritiladi.*

Har bir xalqning bugungi qiyofasi, tili, madaniyati va urf-odatlarini uzoq tarixiy taraqqiyot mahsuli hisoblanadi. Xalqlarning shakllanish jarayoni ko‘plab asrlar davomida turli qabila va elatlarning o‘zaro aralashuvi, iqtisodiy aloqalari, urushlari va madaniy munosabatlari orqali yuzaga kelgan.

Markaziy Osiyo qadimdan turli xalqlar, qabilalar va elatlar yashab kelgan hudud hisoblanadi. Bu yerning qulay geografik o‘rni, tabiiy boyliklari va Buyuk Ipak yo‘li ustida joylashgani sababli ko‘plab xalqlar shu hududga kelib joylashgan. Natijada hududda murakkab etnik jarayonlar yuzaga kelgan.

Etnik jarayonlar – bu xalq, elat va qabilalarning shakllanishi, rivojlanishi hamda o‘zaro aralashuvi jarayonidir. Markaziy Osiyoda yashagan qadimgi qabilalar keyinchalik yirik xalqlarning shakllanishiga asos bo‘lgan. Shu sababli bugungi o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turkman va tojik xalqlarining tarixini qadimgi davrlardan boshlash mumkin. Jumladan, o‘zbeklar Markaziy Osiyoning eng qadimgi va nufuziga ko‘ra eng ko‘p sonli xalqlaridan biri hisoblanadi. O‘zbek xalqi o‘zining ko‘p asrlik boy tarixiga ega bo‘lib, nafaqat O‘zbekiston Respublikasi aholisining asosiy qismini tashkil etadi, balki butun O‘rta Osiyodagi yirik etnik birliklardan biri hisoblanadi.

O‘zbeklar alohida etnik jamoa (elat) bo‘lib, O‘rta Osiyoning markaziy viloyatlari – Movarounnahr, Xorazm, Yettisuv, qisman Sharqiy Turkistonning g‘arbiy mintaqalari va Janubiy Turkistonda shakllangan. O‘zbek xalqining asosini hozirgi O‘zbekiston hududida qadimdan o‘troq yashab, sun‘iy sug‘orma

dehqonchilik bilan shug'ullanib kelgan mahalliy sug'diylar, baxtarlar, xorazmiylar, farg'onaliklar, sak-massagetlar, qang'lar kabi etnik guruhlar tashkil etgan. Shu bilan birga, Janubiy Sibir, Oltoy, Yettisuv, Sharqiy Turkiston hamda Volga va Ural bo'ylaridan kelgan turli qabilalar ham o'zbeklar etnogenezida muhim rol o'ynagan. Bu qabila va elatlar, asosan, turkiy va sharqiy eroniy tillarda so'zlashgan bo'lib, ularning o'zaro aralashuvi natijasida murakkab, ammo barqaror etnik birlik shakllangan.

Milodiy VI–VIII asrlarda Markaziy Osiyo hududiga turkiy qabilalar kirib kela boshladi. Bu jarayon Turk xoqonligi davrida yanada kuchaydi. Turkiy qabilalar mahalliy aholiga aralashib, yangi etnik guruhlarining shakllanishiga sabab bo'ldi. Turkiy xalqlarning kirib kelishi hududning tiliga, urf-odatlariga va madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatdi. Natijada ko'plab mahalliy xalqlar turkiylashdi. Ayniqsa, bugungi o'zbek, qozoq, qirg'iz va turkman xalqlarining shakllanishida turkiy qabilalar hal qiluvchi rol o'ynagan.

O'rta Osiyo VIII asr boshlarida Arablar istilosiga uchradi, bu voqea yangi islom dinining tarqalishi bilan bog'liq edi. Lekin arablar O'rta Osiyoda qattiq qarshilikka uchradilar, chunki ular bu yerda madaniy va iqtisodiy jihatdan ancha yuksak rivoj topgan xalqlarga duch kelgan edilar.

Somoniylar davrida Movarounnahr va Xuroson hududlarida siyosiy barqarorlik qaror topdi, shaharlar rivojlandi, ilm-fan va madaniyat yuksaldi. Bu davrda fors-tojik madaniyati ravnaq topib, mahalliy o'troq aholi yanada mustahkamlandi. Shu bilan birga, turkiy qabilalar bilan o'zaro aloqalar kuchayib, etnik aralashuv davom etdi. Somoniylar davri ayniqsa shahar madaniyati, til va yozuv rivojiga katta hissa qo'shgan bo'lib, keyingi etnik shakllanish jarayonlari uchun muhim asos yaratgan. Hatto, Somoniylar davlati O'rta Osiyoda ilk bor tashkil topgan markazlashgan forsiyzabon feodal davlat sifatida tahlil etilsa-da, ammo uning etnik asosi turkiy va forsiy tilli tojik va o'zbeklarning ajdodlari edi. Uning Movarounnahr va Xorazm viloyatlari aholisining jonli tili asosan turkiy bo'lib, davlat mahkamachiligi tili forsiyda olib borilgan. Aksariyat ziyolilar, shahar va qishloq aholisi ikki tilda so'zlashganlar. Movarounnahr, Xorazm va ularning tevarak-atroflarini birlashtirgan markazlashgan somoniylar davlati tarkibida o'zbek xalqining asosi, uning o'troq negizi, ikki ijtimoiy unsurdan turib, keyinchalik etnik qatlam, qarluqlar-chigil-lahjalari asosida yuzaga keldi. Shuning uchun ham somoniylar davlatini zamonamiz

tariخشunosligida qanchalar forsiy davlat sifatida talqin etishga urinmasin, bu davlat ko‘p etnosli davlat edi. Uning IX–X asrlar davri davlatchiligi O‘rta Osiyoning turkiy va forsiyzabon xalqlariga bab-baravar tegishlidir.

Mamlakatning harbiy jihatdan boshqaruv tizimi turk generallari qo‘lida, qo‘shin tarkibi mutlaqo turk suvoriylari va piyoda turk g‘ulomlaridan tashkil topgan edi. Mamlakat iqtisodiy jihatdan qudratli, harbiy jihatdan kuchli, fan va madaniyat qadimiy an‘analar asosida yuksak darajada rivojlangan edi. X asrda somoniylar davlati shunchalar yuksak darajada rivoj topdiki, uning ta‘sir doirasi butun O‘rta Osiyodan chiqib, Yaqin Sharq sarhadlariga borib yetdi. Uning qudrati, harbiy salohiyatida davlatning turkiylik xarakteri yaqqol ko‘zga tashlanadi. O‘rta Osiyoning g‘arbida somoniylar davlati barbod bo‘lib, har jihatdan jadal rivojlanayotgan yerlarda, avval qarluqlar davlati, uning asosida qurilgan Qoraxoniylar davlati tarkib topgan edi. Qoraxoniylar davlati garchi somoniylar kabi sulolaviy feodal davlat bo‘lsa-da, uning etnik asosini turkiy tilli qavm va elatlar tashkil etardi. O‘z zodagonlari bilan birlashishni ma‘qul topgan Qoraxoniylar X asr oxirlarida Somoniylar davlatlari sarhadlariga kirib keladilar va XI asrning birinchi choragi davomida Qoraxoniylar kuchini Amudaryo sohillarigacha yetib boradi. Juda qisqa muddat ichida buyuk Somoniylar davlati vayronalarida uchta qudratli turk davlatlari — Qoraxoniylar, G‘aznaviylar va Saljuqiylar davlatlari barpo etiladi. O‘rta Osiyo va O‘rta Sharq rivojlangan o‘rta asrlar davrida va undan keyin ham turkiy sulolalar va turkiy hukmdorlar qo‘lida bo‘ldi. Bu siyosiy jarayonlarning ta‘siri mintaqalar etnik tarkibida, o‘zbek xalqining o‘z hududiy doirasida uzil-kesil shakllanishida muhim rol o‘ynagan.

Keyingi bosqichda Markaziy Osiyoda etnik jarayonlar yanada jadallashib, yangi siyosiy kuchlarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq holda davom etdi. Ayniqsa XV asr oxiri – XVI asr boshlarida Muhammad Shayboniyxon boshchiligidagi o‘zbek qabilalarining Movarounnahr hududiga kirib kelishi bu jarayonda muhim burilish yasadi. Shayboniylar asosan Dashti Qipchoq hududlarida yashagan ko‘chmanchi turkiy qabilalardan iborat bo‘lib, ular Movarounnahrning o‘troq aholisi bilan yaqin aloqaga kirishdi.

Shayboniylar davlatining tashkil topishi bilan hududda siyosiy jihatdan yagona markazlashgan boshqaruv tizimi vujudga keldi. Bu esa turli etnik guruhlarining yanada yaqinlashuvi va integratsiyasiga olib keldi. Ko‘chmanchi o‘zbek qabilalari

mahalliy o'troq aholi bilan aralashib, asta-sekin yagona til, umumiy madaniyat va urf-odatlar shakllanishiga zamin yaratdi.

Aynan shu davrda "o'zbek" nomi keng ma'noda butun Movarounnahr aholisiga nisbatan qo'llanila boshladi va bu jarayon yagona o'zbek xalqining shakllanishida muhim bosqich bo'ldi. Natijada turli kelib chiqishga ega bo'lgan etnik guruhlar yagona etnik birlikka birlashib, o'zbek xalqining etnogenezi yakuniy bosqichga yaqinlashdi.

Bu jarayon faqat siyosiy omillar bilan emas, balki iqtisodiy va madaniy integratsiya orqali ham mustahkamlandi. Dehqonchilik va chorvachilik madaniyatining uyg'unlashuvi, shahar va qishloq hayotining o'zaro bog'liqligi, islom dini va umumiy madaniy qadriyatlar ushbu birlikni yanada kuchaytirdi. Natijada Markaziy Osiyoda tarixiy ildizlarga ega, ammo yagona o'zlikni anglagan o'zbek xalqi shakllandi.

Shunga qaramay, vaqt o'tishi bilan islom dini hududda keng tarqaldi va xalqlarni birlashtiruvchi muhim omilga aylandi. Islom dini orqali yagona diniy-madaniy makon shakllanib, turli etnik guruhlar o'rtasidagi farqlar asta-sekin kamaydi.

Keyingi asrlarda, ayniqsa qoraxoniylar, saljuqiylar va temuriylar davrida ham etnik jarayonlar davom etdi. Turkiy unsurlar yanada kuchayib, o'troq va ko'chmanchi madaniyat uyg'unlashdi. Bu davrlar Markaziy Osiyo xalqlarining yakuniy shakllanish bosqichlari sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Markaziy Osiyo etnik jarayonlari faqat geografik yoki siyosiy ta'sir bilan emas, balki madaniyat va urf-odatlar orqali ham boyitilgan. Buyuk Ipak yo'li mintaqani nafaqat savdo markazi, balki madaniy almashinuv markaziga aylantirdi. Turkiy xalqlar arablarning islom dini, adabiyoti va ilmiy merosidan ilhomlanib, o'z madaniyatlarini boyitdi. Yo'l bo'ylab kelgan savdogarlar, hunarmandlar va sayyohlar turli madaniyatlarni olib kelib, mahalliy xalqlarning urf-odatlarini boyitdi. Natijada yangi hunarmandchilik turlari, kiyim-kechak uslublari, milliy taomlar va san'at shakllandi.

Shu tarzda, etnik guruhlar faqat tillar yoki biologik omillar orqali emas, balki madaniy tajriba, diniy e'tiqod va ijtimoiy munosabatlar orqali ham shakllangan. Bugungi kunda Markaziy Osiyo xalqlari o'z tarixiy ildizlariga hurmat bilan qarab, boy madaniy merosini saqlab qolgan holda zamonaviy rivojlanish yo'lidan

bormoqda. Ular qadimiy va zamonaviy hayot uygʻunligini oʻzida mujassam etgan holda, dunyo sivilizatsiyasining ajralmas qismi sifatida namoyon boʻlmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

Islom Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak Yoʻq"

A.Ashirov "Etnologiya"

M.M.Xayrullayev "Oʻrta Osiyoda IX-XII asrlarda madaniy taraqqiyot"

Shoniyozov K.Sh. "Oʻzbek xalqining shakllanish jarayoni" – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2001.